ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Shukuritdinbekov Otabek Yuldashbekovich

“Tashkent International University of Education”

xalqaro universiteti magistri

MARKAZIY OSIYO ALLOMALARI MEROSINING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Keywords: integratsiya, globallashuv, ta'lim-tarbiya, pedagogik madaniyat, "Buyuk ipak yo'li", mudarris, “Mineralogiya”, Xuroson, Movarounnahr, istilochilar, xalifalik, komil inson, falakiyot ilmi

Abstract: Markaziy Osiyo islom pedagogik merosini nazariy-pedagogik jihatdan tahlil qilish, uning tarixiy manbalarini o‘rganish hamda ushbu merosni zamonaviy ta’lim tizimiga integratsiya qilish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqolada Markaziy Osiyo mutafakkirlarining boy ilmiy-ma’naviy merosi zamonaviy pedagogik jarayonlarni modernizatsiya qilishning metodologik asosi sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi globallashuv sharoitida milliy ta’lim tizimining barqarorligini ta’minlash va yoshlarda milliy o’zlikni anglash tuyg’usini shakllantirish zarurati bilan belgilanadi. Allomalarning "Komil inson" konsepsiyasi va axloqiy tarbiya borasidagi qarashlarini hozirgi davrdagi shaxsga yo’naltirilgan ta’lim paradigmalari bilan qiyosiy o’rganadi. Maqolada Sharq uyg’onish davri namoyandalarining pedagogik qarashlari nafaqat tarixiy yodgorlik, balki milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg’unlashgan yangi ta’lim modelini yaratishda muhim resurs ekanligi ilmiy asoslab berilgan.

Ta'lim tarixi qadim zamonlardan tortib to hozirgi kungacha bo'lgan turli tarixiy davrlarda ta'lim-tarbiya, maktab va pedagogika nazariyalarining taraqqiyotini o'rganadi. Yosh avlodni tarbiyalash va o'qitish nazariyasi bilan amaliyotini qanday taraqqiy etib kelganligini bilmay turib, bugungi kundagi ulkan ta'lim-tarbiyaviy ishlarni, maktablarni jamiyat hayotida tutgan mavqeini, ilmiy ravishda hal qilib bo'lmaydi.

O'tmishda yashab ijod etgan ajdodlarimizning ta'limga nisbatan bildirgan ilg'or fikrlari, Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyatida maktab va xalq ta'limining rivojlanish jarayonini o'rganish, tanqidiy xulosalar chiqarish, pedagogik tafakkurni o'sishiga, pedagogik madaniyatni ortishiga olib keladi.

VII-VIII asrlardagi arab istilolari natijasida xalifalik deb atalgan katta davlat vujudga keldi. Bu davlat sostaviga Arabistondan tashqari Suriya, Falastin,
Mesopatamiya, Eron, O'rta Osiyo, g'arbda esa Shimoliy Afrika va Pirenet yarim
orolining janubi kirdi. Istilochilar o'zlari bo'yinsundirgan xalqlarga yangi dinni -
islom dinini zo'rlab qabul qildirdilar.

Islom dini bilan birga shu dinning "muqaddas" bo'lgan qur'onning tilini, ya'ni arab tilini o'rganish joriy qilindi, qur'onni boshqa tillarga tarjima qilish ta'qiqlab qo'yildi va uni tarjima qilgan kishining boshi olinajagi e'lon qilindi. Xalifalikni xilmaxil qabilalar yashaydigan qismlari arab tili orqali bir-biri bilan aloqa qilib turardi. Xalifalik bo'linib ketgandan keyin (X asr) arab tili xalqlar o'rtasida savdo va madaniy aloqa vositasi bo'lib xizmat qilib qolaverdi. Musulmon

maktablarida arab tili alohida muhim fan tariqasida o'qitilar edi, bilimlar ana shu tilda o'rganilar edi.

Musulmon maktablarida o'quvchilarga "inson umrbod xudoning yo'lyo'rig'idan chiqmasligi lozim", demak, o'z hokimlariga itoat qilishi lozim, chunki hokimlar xudoning yerdagi soyasidir; "bu dunyoni o'ylamay, u (narigi, ya'ni o'lgandan keyingi) dunyoni o'ylamoq kerak" - deb ta'lim berilar edi. Ko'p asrlar davomida islom falsafasi va pedagogikasining asoschilaridan biri deb hisoblab kelingan G'azzoliy (XI asr, Eron) har bir musulmon uchun "kerakli bilimni" shu yuqoridagi iboralarda ifodalab bergandi. Musulmon maktablarini tiplariga, asosan bunday maktablarning Markaziy Osiyoda rivojlanish masalasiga to'xtalib o'tamiz.

Arab istilosidan oldingi davrda Markaziy Osiyodagi o'qitish sistemasi to'g'risida ham bir yo'la taqqoslab, gapirib o'tamiz. Bu bilan biz yashab turgan joylarimizdagi ajdodlarimiz ham anoyi sodda odamlar emasligiga, madaniyati rivojlanayotgan xalq ekanligiga amin bo'lasiz.

Xitoy sayyohi Syuan Szyan 630 yilda Samarqand haqida quyidagilarni yozadi: bu shaharda o'g'il bolalarning hammasi besh yoshdan boshlab yozish va hisoblashga o'rgatiladi, o'smirlik yoshiga yetganda esa savdo ishini o'rganmoq uchun savdogarlarning karvoniga qo'shilib, safarga jo'naydilar. "Buyuk ipak yo'li" bo'yida savdo-sotiq ishlarini o'z qo'liga kiritib olgan savdogarlarning bolalarigina shunday qilardilar, albatta. Bu yerda Xitoydan Samarqandga xat olib kelgan qadimiy xat tashuvchi (kuryer) ning sumkasini eslatib o'taylik.
Savdogarlardan tashqari soliq undirish va ma'muriy yozishmalar bilan
shug'ullanuvchi mirzalar ham savodli bo'lishi va hisoblashni bilishi kerak edi.
Zarafshon daryosining yuqori tomonidagi yerlarda, muh tog'ida, arablar bilan bo'lgan urushlarda qatnashgan mahalliy bek qasrining vayronalarida savdo-sotiq ishlariga doir xatlar yozilgan ko'pgina hujjatlar topildi. Bu hujjatlar turli materiallarga turli tillarda (qog'oz, yog'och, teri va boshqalarga) yozilgan edi.
Syuan Szyanning Samarqandga borganidan bir necha yil o'tgach, Samarqandni
va butun Markaziy Osiyoni arablar bosib oldi va bu yerlarning aholisiga islom dini qabul qildirdi. Xalifalikni o'zida va uning territoriyasidagi yangi davlatlarda mirzalar (dabirlar) toifasi ko'payib ketdi. Shundan beri tevarak-atrofdagi ko'p mamlakatlarda bo'lgani kabi butun Markaziy Osiyoda ham xatlar arab harflari bilan va asosan arab tilida yoziladiga bo'lib qoldi, qog'oz ko'p kerak bo'la boshladi.

IX asrda yashagan faylasuf Farobiyning yozishiga qaraganda (u asli
Sirdaryolik turklarda bo'lib, Bog'dodda o'qigan), mohir dabir arab tilini (lug'at va
grammatikasini), ritorikani (mantiqni va o'z fikrini bayon qila olishni), xusnixatni va arifmetikani bilishi kerak edi. XI asrda chop etilgan "Siyosatnoma" (NizomulMulkning hukmdorligi haqida) asarida Samarqanddagi boshlang'ich maktab tasvirlanadi; shu maktabda o'zining olimligi bilan shuhrat qozongan bir mashhur dabir yozgan hujjatni o'rnak qilib, yozishni o'rganar ekanlar.
Yana o'sha XI asrda, asli samarqandlik bo'lib, lekin Afg'onistondagi bekning
xizmatida yurgan boshqa bir tajribali dabir xat yozishni mashq qila boshlagan
dabirlarga o'z ilmini ortirish va tilini boyitish uchun arab va fors-tojik tillarida
yozilgan o'ttizga yaqin asarni o'qib chiqishni tavsiya qilgan.
Keyinroq ayniqsa mo'g'ullarning XIII asrdagi istilosidan so'ng odatda
madrasini tamomlab chiqqan kishilargina ma'muriy vazifalarda va qozixonalarda
ishlaydigan bo'lib qoldilar.

Madrasini xatm qilgan tolibi ilmlar (tamomlab chiqqan) masjidlarning imomi bo'lib ishlar edilar; qozixonalarda ma'muriy ishlarda xizmat qilar edilar. Shu sababli hokim va beklar madrasalar tashkil etilishidan manfaatdor edilar.
XI asrda Bag'dodda vazir (bosh ministr) Nizomul-Mulk 300 ta bola

o'qitiladigan madrasa qurdi. O'sha vaqtda bu eng katta madrasa hisoblanar edi. Madrasaga yosh Al-G'azzoliy bosh mudarris bo'lib tayinlandi. "Nizomiya" deb atalgan shu madrasada Al-g'azzoliy matematika va boshqa dunyoviy fanlarni o'qitishni joriy etdi.

Abu Rayhon Beruniy jahon fanining taraqqiyotiga g‘oyat ulkan hissa qo‘shgan zo‘r iste’dod egasi va zahmatkash tadqiqotchi edi. Uning o‘lmas ilmiy asarlari jahon sivilizatsiyasida yuksak ahamiyatga ega.

Abu Rayhon Beruniy butun umrini ilmga bag‘ishladi, o‘zi hayot ekan paytidayoq o‘sha davrning eng buyuk olimi va mutafakkiri sifatida tanildi. Beruniy ilm-fan rivojiga g‘oyat katta hissa qo‘shdi. “Aql va ma’rifatda hali unga o‘xshash biror kishini davron yarata olgani yo‘q”, - deb yozgan edi XIII asr tarixshunosi Yoqut.

Beruniy ilmiy bilimlarni egallash yo‘llari, usullari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir.

O‘quvchiga bilim berishda:

- o‘quvchini zeriktirmaslik;

- bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o‘rgatavermaslik;

- yangi mavzularni qiziqarli, asosan, ko‘rgazmali bayon etish va hokazoga e’tibor berish kerakligini o‘qtiradi.

Abu Rayhon Beruniy fan sohasidagi yodgorliklarni, ilmiy bilimlarga oid qoldirgan barcha boyliklarni qunt bilan o‘rganishga da’vat etadi.

Olim ilm toliblariga qalbni yomon illatlardan, inson o‘zi sezishi mumkin bo‘lmagan holatlardan, behuda raqobatdan, ochko‘zlikdan, shon-shuhratdan saqlanish zarurligini uqtirgan.

Shuningdek, har bir xalqning o‘ziga xos ta’lim usullari, yo‘llari, shakllari borligini ta’kidlash bilan birga, har bir xalqning ham o‘qitish tizimi alifbodan boshlanishni ko‘rsatadi. Grammatika, matematika fanlarini o‘qitishga oid qimmatli fikrlar bayon etadi.

Beruniy til va adabiyot, tarix, geografiya, geodeziya, geologiya, mineralogiya fanlari, tibbiyot va dorilshunoslik, fizika, falakiyot ilmiga oid tadqiqotlarini o‘zi targ‘ib etgan nazariya hamda kuzatishlar natijasida amaliyotda sinab ko‘rib, fan haqiqat ustuvor turishini ta’kidlaydi.

U barcha illatlarning asosiy illatlarning asosiy ilmsizlikda deb bildi. Ilmlarni egallashda esa shaxsda sababi intilish va qiziqish, muhitni alohida ta’kidlaydi.

Bilim olishda tushunib o‘rganish, ilmiy tadqiqotchining poklikka rioya etishga alohida e’tibor beradi, jamiyatning ravnaqi ma’rifatning rivojiga bog‘liq degan g‘oyani ilgari suradi.

Beruniy ta’lim berish kishi ruhiyatiga, qobiliyatiga mos, uni toliqtirmaydigan bo‘lishiga e’tibor beradi va shunday yozadi: “Bizning maqsadimiz o‘quvchini toliqtirib qo‘ymaslikdir. Hadeb bir narsani o‘qiy berish zerikarli bo‘ladi va toqatni toq qiladi. Agar o‘quvchi bir masaladan boshqa bir masalaga o‘tib tursa, u xuddi turli-tuman bog‘-rog‘larda sayr qilgandek

bo‘ladi, bir bog‘dan o‘tar-o‘tmas, boshqa bog‘ boshlanadi. Kishi ularning hammasini ko‘rgisi va tomosha qilgisi keladi. “Har bir yangi narsa rohat bag‘ishlaydi” - deb behuda aytilmagan”.

Beruniy kishilar hayotidagi yomonlikni qoralaydi. Uning fikricha, bu illatni yo‘qotishning asosiy yo‘li uning ildizlarini topish va kesib tashlashdir. Yomonlikning shaxobchalari ko‘p, ammo ularning asosi uch narsa: ta’ma, g‘azab va ilmsizlikdir. Agarda bu asoslar qirqib tashlansa, shaxobchalar quriydi. Bu asoslarning negizi esa ishtaha va g‘azabdir. Ishtaha insonga eng kuchli va eng halokatli dushman bo‘lib, insonni ovqatlarni tanovul qilish lazzati va o‘ch olish zavqi bilan aldaydi. Olimning tushuntirishicha, bu illatlar, ranj va gunohga olib keladi. Ularning ta’siriga berilib ketgan kishi insonlik qiyofasini yo‘qotadi. Beruniy bunday kishilarni yirtqich va to‘rt oyoqli hayvon, hattoki shayton va iblis deb hisoblaydi (o‘sha kitob, 70-bet).

Beruniy rostgo‘ylikni adolat bilan barobar qo‘yadi. Uning fikricha, xalq adolatni sevgani kabi rostgo‘ylikni ham sevadi. Ammo uning mohiyatini, yoqimliligini bilishni istamaydigan kishi uni sevmaydi.

Beruniy “Hinduston” kitobining yettinchi bobida ma’rifat va bilimdonlik darajasi, kishilarning mulohaza yuritish holati to‘g‘risida fikr bildiradi. Bobdan o‘rin olgan hikoyada olim shunday voqeani bayon etadi:

«Bir ustoz o‘z shogirdlari bilan qorong‘i kechada yo‘l bosib borar edi. Ular yo‘l bo‘yicha tik turgan bir koroltinga duch keladilar. Ustoz shogirdlaridan uning nima ekanini aytishni talab qiladi. Shogirdlaridan biri bilmayman, ikkinchisi ham bilmayman va bilishga qudratim yetmaydi, deb javob beradi. Uchinchisi esa tong yorishsa, ma’lum bo‘ladi, qo‘rqinchli narsa bo‘lsa, tong yorishishi bilan yo‘qolib ketadi. Qo‘rqinchli narsa bo‘lmasa ahvoli ravshan bo‘ladi, deb javob qildi».

Beruniy uch shogirdning ahvolini, qobiliyatini ularning javoblaridan bilib oladi: olimga birinchi va ikkinchi shogirdning ilmsizligi, uchinchisining ishni keyinga surishi, ilmsiz bo‘lsa ham, ma’rifatga intilishi namoyon bo‘ladi. Shu tufayli Beruniy uning javobini ma’qullaydi.

Bu shogird koroltinga borib, bir-biriga chirmashib ketgan qovoq palagini ko‘radi, koroltin jonsiz narsa ekaniga ishonadi, biror ihota emasmikan deb shubhalanadi-da, tepib yuboradi, koroltin ag‘anadi. Shunda shogird uning ihota ekaniga to‘la ishonadi. Barcha ko‘rgan, bilganlari haqida ustozi Beruniyga xabar qildi va uning qarshisida e’tibor qozondi.

Demak, har bir narsani aniq, sinchiklab o‘rganish, bilish va shundan so‘nggina bir xulosaga kelish kerak. Beruniy bu ishda tajribaga asoslanishni alohida uqtiradi, nodonlik, erinchoqlik, ilmsizlikni tanqid qiladi.

Olimning ta’kidlashicha, sezgi o‘z qo‘zg‘atuvchi a’zolari orqali yuzaga keladi. Qo‘zg‘atuvchilar bir me’yorda bo‘lsa, yoqimli va zararsiz, agarda me’yordan ortiq bo‘lsa, dardli va halokatli bo‘ladi.

Ko‘rish sezgisini nur qo‘zg‘atadi, hidlash havo bilan burunga uriladigan hidlar orqali paydo bo‘ladi, ta’m-oziqaning mazasi bilan vujudga keladi. Bu to‘rt sezgini his etuvchi maxsus a’zolar tanada mavjuddir. Beshinchi sezgi esa, butun badandagi voqeadir.

Beruniy ana shu xususiyatlari bilan insonning barcha mavjudotlardan ustunligini ta’kidlab, insonning asosiy vazifasi mehnat orqali ko‘zlagan maqsadiga erishish, yaxshilik orqali yaxshilik ko‘rishdir, degan g‘oyani olg‘a suradi va bu fikrini Robi’a qabilasidan chiqqan A’sho nomli shoirning quyidagi misralari orqali quvvatlaydi:

ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Mening qalbim ikki biqinim o‘rtasida turib,

Ko‘zlarning ko‘rgani quloqlarning eshitganini anglaydi.

Bu satrlarda bilim eshitish va ko‘rish orqali egallanishi va u qalbga bog‘liqligi ta’kidlanadi.

Beruniy bu fikr to‘g‘riligining isboti uchun shoir Abu Tammomning quyidagi misralarini keltiradi:

Barcha donolar deydilarki,

Mardning tili – qalbining malayidir.

Abu Rayhon Beruniy ham inson bilimlarni aqlning sezgi a’zolari bergan ma’lumotlar orqali egallashini aytadi.

Xotiraning ahamiyati haqida Beruniy ajoyib fikr aytgan.

“Xotira, - deydi u – dalili bor hamma narsalarni yaxshiroq, tezroq va ung‘ayroq eslab qoladi”.

Xotirani u Tangri taoloning tuhfasi deb hisoblaydi.

Olim bilim olishni axloqiy tarbiya bilan bog‘laydi. Zero, insonda komillikning muhim mezoni yuksak axloqlilikdir.

Beruniyning “O‘tmish avlodlaridan qolgan yodgorliklar”, “Hindiston”, “Mineralogiya”, “Kitob as-saydona”, “Al-qonuni al-Mas’udiy”, “Geodeziya” va boshqa asarlarida inson, kamolotida axloqiy tarbiyaning muhim o‘rnini ta’kidlaydi.

Uning fikricha axloqiylik insonning eng asosiy sifati bo‘lishi kerak. Bu xislat birdaniga tarkib topmaydi.

U kishilarning o‘zaro muloqoti, ijtimoiy muhit – jamiyat taraqqiyoti jarayonida tarkib topadi yoki u yaxshilik bilan yomonlik o‘rtasidagi kurash natijasida namoyon bo‘ladi. Yaxshilik va yomonlik insonning xulq-atvorini belgilaydigan mezon hisoblanadi. Yaxshi xislatlarga to‘g‘rilik, odillik, o‘zini vazmin tutish, kamtarlik, lutf, sobitqadamlik, ehtiyotkorlik, saxiylik, shirinsuxanlik, rahbarlikda adolatlilik, tadbirkorlik kabilarni kiritadi.

Yomon illatlarga esa hasadgo‘ylik, baxillik, nosog‘lom raqobat, o‘z manfaatini ko‘zlash, mansabparastlik va hokazolarni kiritadi. Beruniy faxrlanishni yaxshi xulq ma’nosida ishlatib “Yodgorliklar”da shunday deydi: “Faxrlanish – haqiqatda yaxshi xulqlar va oliy fe’llarda oldin ketish, ilmu hikmatni egallash va imkoniyat boricha mavjud nopokliklardan tozalanishdir. Kimda shunday sifatlar topilsa, hukm uning foydasiga va kimda bular yetishmasa, hukm uning zarariga bo‘ladi”.

Demak, Beruniy insonning ma’naviy qiyofasidagi barcha axloqiy xislatlarini yaxshilik va yomonlik kabi ikki turga bo‘ladi. Bu insoniyat yaratgan pedagogik fikr taraqqiyotida “qizil ip” bo‘lib o‘tganidek, shu an’anaga muvofiq Beruniyda ham axloqiy tushunchalar, axloqiy barkamollikning muhim tomonlaridir.

Beruniy saxovat (o‘zaro yordam, bir-biriga foyda keltirish uchun hamkorlik), muruvvat (odamlarga xayrixoh bo‘lish, halollik va haqgo‘ylik, o‘z mehnati bilan kun ko‘rish va boshqalar)ni insonning axloqiy kamolotini ko‘rsatuvchi xislatlar deb biladi.

Insonning axloqiy kamolga yetishi muammosi butun ta’lim-tarbiya tizimida markaziy masala bo‘lib qolgan.

Olim ezgu tilakka yetishga to‘sqinlik qiluvchi ziqinalik, yolg‘onchilik, munofiqlik, manmanlik, takabburlik kabi nuqsonlarni qoralaydi, boylikka ruju qo‘yish va ta’magirlik, g‘azab va johillik inson uchun eng ashaddiy dushman deb qaraydi.

Mutafakkir ilgari surgan axloqiy xislatlardan yana biri adolatdir. U jamiyatda adolat, uni yovuzliklardan xolos etish uchun dono, adolatli hukmdor bo‘lishi kerak, deydi. Beruniy kundalik turmushi masalalariga ham katta e’tibor bergan.

Har bir axloqan barkamol inson o‘zining turmush tarzini ham uyg‘un, go‘zal eta oladi. Uyg‘unlik go‘zallik va nafosatning asosi sanaladi. Beruniy insoniy xislatlardan muhimi – ozodalik, tarbiyalilik bo‘lsa, insonga eng yaqin narsa uning tabiati, ruhi deydi. Shuning uchun inson o‘z tabiatiga yoqadigan ishlarni bajarishi zarur, deb ko‘rsatadi. Bunda insonning ichki dunyosi bilan tashqi go‘zalligi, turmush tarzidagi go‘zallikning uyg‘un bo‘lishini talab etgan. Bunga inson kiyadigan kiyimdan tortib, kundalik turmushdagi yurish-turishi, so‘zi, qalbi, qilgan ishi – hammasining go‘zal bo‘lishi ta’kidlangan.

Har bir shaxsda sharm-hayo, nafis, did, iffat, latofat, shirinsuhanlikning tarkib topishi turmushdagi yanada go‘zal bo‘lishga olib keladi.

Olimning inson turmushiga xos xulq-odob qoidalari haqidagi fikrlari pedagogik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Inson ham ichki, ham tashqi tomondan go‘zal bo‘lsagina haqiqiy kamolotga erishishi mumkin deydi. U ozodalik va orastalikni olijanoblik bilan tenglashtiradi. Inson doimo bularga rioya etishi zarur deb ta’kidlaydi. Bunda inson o‘zini boshqara olishga qodir bo‘lishi, har bir yetuk inson uchun zarur bo‘lgan xislatlarni tarkib toptirishda kuch va irodaga ega bo‘lishi zarur, deydi.

“Mineralogiya” asarida bu fikrni quyidagicha ifodalaydi:

“Inson o‘z ehtiroslariga hukmron, ularni o‘zgartirishga qodir, o‘z jon va tanini tarbiyalar ekan, salbiy jihatlarni maqtagulik narsalarga aylantirishga hamda asta-sekin, axloq haqidagi kitoblarda ko‘rsatilgan usullar bilan illatlarni bartaraf etishga qodirdir”.

Beruniy insonni kamolotga yetaklovchi xislatlardan yana biri olijanoblik deb ko‘rsatadi. Olijanoblikning mazmunini yaxshilik tashkil etadi. Bunda olim insonga inson sifatida muomala qilishni nazarda tutadi. Eng muhimi, mutafakkir, inson kamolotida, mehnat tarbiyasi haqida muhim fikrlarni bayon etadi. U har bir hunar egasining mehnatiga qarab turlarga bo‘ladi. Og‘ir mehnat sifatida binokor, ko‘mir qazuvchi, hunarmand, fan sohiblari mehnatini keltiradi. Ayniqsa, ilm ahli – olimlar mehnatiga alohida e’tibor berish, xayrixoh bo‘lishga chaqiradi, ularni ma’rifat tarqatuvchilar, jamiyat ravnaqiga hissa qo‘shuvchilar deb biladi.

Olim bolalarni mehnatga o‘rgatish metodlari, yo‘llari haqida ham fikr yuritadi. Masalan, bolalarni eng kichik yoshidan mehnatga o‘rgatish kerak deydi. Mehnat tarbiyasida o‘sha davr tarbiya an’anasiga binoan vorislikka katta ahamiyat beradi.

Buni E.To‘raqulov va S.Rahimovlar “Abu Rayhon Beruniy ruhiyat va ta’lim-tarbiya haqida” nomli risolalarida juda yaxshi bayon etishgan. Beruniyning “Mineralogiya” asarida faqat qimmatbaho metallar, toshlar haqida emas, hunarmandchilikka oid shogird tayyorlash jarayoni, ustalarning hunar o‘rganish metodlari haqida ham qimmatli fikrlar bayon etilgan. Bunda hozirgi pedagogika fani tili bilan aytganda, shaxsiy namuna metodidan foydalangani, ish jarayoni bevosita xat nazariy, ham amaliy jihatdan ustaxonaning o‘zida bajarilgani shogirdlarning malakali usta bo‘lib yetishishida katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Shuning uchun ham o‘sha davrda Xuroson va Movarounnahr matallurgiya, konchilik, to‘quvchilik zebi-ziynat buyumlari yasash, qog‘oz va oyna ishlab chiqarish va boshqa sohalarda dunyo bozorida nom chiqargan.

Hunarmandchilikning bunday yakka holda o‘rgatilishi malakali kasb egalarining yetishib chiqishiga yordam bergan, halol va vijdonan mehnat qilishga yo‘llaganki, bu insonning kamolga yetishishda muhim pog‘ona bo‘lgan. Zero, qadimdan har bir yetuk inson u shohmi, oddiy fuqaromi, hunarning bir yoki bir necha turini bilishi zarur sanalgan. Shunga ko‘ra buyuk shohlar ham, beklar ham, mol-mulk egalari bo‘lgan beylar ham, oddiy fuqaro ham o‘z farzandini bilimli bo‘lishi bilan birga, hunarli bo‘lishga ham e’tibor bergan va u yozilmagan qonunga barcha birdek amal qilgan. Chunki kishilik jamiyati paydo bo‘lgandan boshlab, kishilar o‘z mohiyati va hunari bilan kun kechirishga majbur bo‘lgan va bu hayot taqozosi sifatida qabul qilingan.

Shuning uchun ham Beruniy inson har tomonlama kamolga yetishi uchun u ilmli bo‘lishi bilan birga mehnatsevar va hunar egasi bo‘lishi ham kerak deydi.

Beruniy inson kamolotida uch narsa muhimligini ta’kidlaydi.

Bu hozirgi davr pedagogikasida ham e’tirof qilingan irsiyat, muhit va tarbiyadir.

Ma’lum bir davrda olimlar inson kamolotiga irsiyat, muhitning ta’sirini inkor etib, faqat tarbiyani tan oladilar.

Lekin Beruniy o‘z zamondoshlari – buyuk mutafakkirlar Forobiy, Ibn Sinolar kabi inson kamolotida har uchalasini ham muhim deb hisoblaydi. Ya’ni u insonning kamolotga yetishida ilmu ma’rifat, san’at va amaliyot asosiy rol o‘ynasa-da, nasl-nasab, ijtimoiy muhit va ijtimoiy turmush qonuniyatlari ham katta ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi. Abu Rayhon Beruniy nazarida inson kamolga yetishining eng muhim omillari ilmli-ma’rifatli bo‘lish va yuksak axloqlilikdir.

Beruniy ilmiy bilimga oid, ta’lim metodlari haqidagi qarashlari bilan ta’lim nazariyasida o‘ziga xos maktab yaratdi.

Yoshlarni tarbiyalashda esa axloqiy mehnat tarbiyasi, nafosat tarbiyasi, oila tarbiyasi, insonning shaxsiy gigienasi, xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik, hamkorlik haqidagi tushunchalar katta ahamiyatga egadir.

Olim axloqlilikning belgilari sifatida yaxshilik, to‘g‘rilik, adolat, kamtarlik, sahovat, olijanoblik, do‘stlik va hamkorlik, mehnat va hunar egallash, poklik, go‘zallikka intilish kabilarni ilgari surgan. Bularning barchasini u yaratgan asarlaridagi ijtimoiy-falsafiy fikrlarga bog‘lab tushuntirgan.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, Beruniyning komil insonni shakllantirishga oid bu fikrlari faqat o‘z zamonasi uchun emas, hozirgi davr ta’lim-tarbiya ishlarini takomillashtirishda ham katta ahamiyatga ega. Zero, uning o‘zi ham haqiqiy komil insonga xos xislatlarga ega

ekanligini, hayoti va ijodiy faoliyati, yozgan asarlari bilan isbotlab, kelajak avlodlarga katta ma’naviy meros qoldirdi.

Biz esa undan foydalanishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. E.To‘raqulov va S.Rahimovlar “Abu Rayhon Beruniy ruhiyat va ta’lim-tarbiya haqida” ,
2. Beruniyning “Mineralogiya”,
3. Beruniy “Tanlangan asarlar” A.Rasulov tarjimasi,
4. Nizomulmulkning "Siyosatnoma",
5. Ashraf, 1985, 27–32-betlar,
6. Fakhry, 1997, 63-bet ,
7. Leaman, 1996, 311-bet